



BANKLARNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR

*Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
i.f.f.d. Ibroximov Ilxomjon Shavkatjon o‘g‘li
Mirobidova Dono Toir qizi
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti,
Bank ishi fakulteti talabasi
mirobidovadono@gmail.com*

Annotatsiya: Mazkur tezisda banklarning iqtisodiy samaradorligini oshirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va uning roli tahlil qilinadi. Raqamli bank xizmatlari, blokcheyn, sun‘iy intellekt va big data texnologiyalari mijozlarga xizmat ko‘rsatishni takomillashtirish, operatsion xarajatlarni kamaytirish va xavflarni boshqarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bank sektorida innovatsion yondashuvlarni qo‘llash iqtisodiy barqarorlik va raqobatbardoshlikni ta‘minlashning muhim belgisi hisoblanadi.

Kalit So‘zlar: Banklar, iqtisodiy samaradorlik, zamonaviy texnologiyalar, raqamli bank xizmatlari, blokcheyn, sun‘iy intellekt, big data, innovatsiyalar, xavflarni boshqarish, raqobatbardoshlik.

Kirish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son Farmoniga muvofiq 2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasida bank tizimini rivojlantirishning maqsadlari, vazifalari va ustuvor sohalarini, 2020-2025-yillarda bank tizimini transformatsiya va isloh qilish yo‘nalishlarini, xorijiy mamlakatlarning moliya sektorini transformatsiya qilish tajribasi va innovatsion texnologiyalarni qo‘llashning ahamiyatini belgilaydi.

Bank, boshqa har qanday muassasa kabi, o‘z kelajagi haqida aniq bir yo‘nalishga va innovatsion teznologiyalariga ega bo‘lishi kerak. Shu maqsadda, marketing tadqiqotlari bankning tadbirkorlik faoliyati strategiyasi va dasturini shakllantirishda asosiy ma‘lumot manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Asosiy qism.

Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va ularni qo‘llash banklarning iqtisodiy samaradorligini sezilarli darajada oshirishi va uning takomillashigaolib



keladi. Raqamli bank xizmatlari va mobil ilovalar mijozlarga qulaylik yaratib, xarajatlarni kamaytirishga yordam beradi, vaqtni tejadi va operatsion jarayonlarni tezlashtiradi. Sun'iy intellekt va big data texnologiyalari orqali banklar mijozlar ehtiyojlarini chuqur tahlil qilib, moslashtirilgan xizmatlar taqdim etish imkoniyatiga ega bo'ladi, bu esa mijozlar bankning doimiy mijoz bo'lishini oshiradi va banklarning raqobatbardoshligini kuchaytiradi. Shuningdek, blokcheyn texnologiyasi xavfsizlikni ta'minlash, tranzaksiyalarni tez va ishonchli amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. Texnologiyalar yordamida risklarni boshqarish tizimi kuchayib, iqtisodiy barqarorlikni saqlashda katta ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, zamonaviy texnologiyalarning bank tizimiga integratsiyasi banklarning samaradorligini oshirish va raqobatni kuchaytirishda muhim ahamiyatga ega.

2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlar

T/r	Ko'rsatkichlar nomlanishi	Joriy holati	Maqsad:		
			2021-yilga	2023-yilga	2025-yilga
1.	Xususiy (davlat ulushi ishtirok etmagan) banklar aktivlarining bank sektori aktivlari umumiy hajmidagi ulushi	15 foiz	17 — 20 foiz	35 — 40 foiz	60 foiz
2.	Banklarning xususiy sektor oldidagi majburiyatlarining majburiyatlar umumiy hajmidagi ulushi	28 foiz	30 — 40 foiz	60 foiz	70 foiz
3.	Yetarli tajriba, bilim va obro'ga ega bo'lgan strategik xorijiy investorlarni jalb qilish	-	-	3	3
4.	Depozitlarning banklar majburiyatlariga nisbati	41 foiz	41 — 45 foiz	45 — 50 foiz	50 — 60 foiz
5.	Nobank kredit tashkilotlari aktivlarining kredit tashkilotlari aktivlari umumiy hajmidagi ulushi	0,35 foiz	0,5 — 0,7 foiz	1 — 1,5 foiz	4 foiz
6.	Xorijiy valyutadagi majburiyatlarning majburiyatlar umumiy hajmidagi ulushi	58 foiz	50 — 55 foiz	45 — 50 foiz	40 — 45 foiz
7.	Bank aktivlarining YAIMga nisbati	53 foiz	53-54 foiz	54-55 foiz	55 foizdan ko'p
8.	Bank depozitlarining YAIMga nisbati	18 foiz	19 — 21 foiz	22 — 24 foiz	25 — 27 foiz



Zamonaviy texnologiyalar banklarning iqtisodiy samaradorligini oshirishda katta potentsialga ega. Raqamli transformatsiya, masalan, mobil bank xizmatlari va onlayn platformalar, mijozlarga xizmat ko'rsatish jarayonini tezlashtiradi va xarajatlarni kamaytiradi. Biroq, bu texnologiyalarni joriy etishning o'ziga xos qiyinchiliklari ham mavjud. Banklar texnologiyalarga katta investitsiyalar kiritishga majbur bo'lishadi, va bu holat kichik va o'rta banklar uchun moliyaviy yukni oshirishi mumkin. Shuningdek, raqamli xavfsizlik va maxfiylik masalalari, ayniqsa blokcheyn texnologiyalarini joriy etishda, hal qilinishi kerak bo'lgan asosiy muammolar sifatida qolmoqda.

Sun'iy intellekt va big data texnologiyalarining potentsiali juda yuqori, ammo ularni muvaffaqiyatli joriy etish uchun yuqori malakali mutaxassislar va mos infratuzilma zarur. Big data yordamida banklar mijozlarning istaklari va xatti-harakatlarini tahlil qilib, shaxsiylashtirilgan xizmatlarni taqdim etishi mumkin, ammo bu jarayonlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilishda yuzaga keladigan texnik va axborot xavfsizligi masalalari hal etilishi kerak.

Blokcheyn texnologiyasi esa banklarning operatsiyalarini tez va ishonchli amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. Biroq, uning keng miqyosda qabul qilinishi uchun global miqyosda bir xil standartlar va qonunlar ishlab chiqilishi kerak. Shuningdek, texnologiyalarni joriy etishdan oldin banklar ichki tizimlarini va jarayonlarini modernizatsiya qilishni talab etadi, bu esa vaqt va resurslarni talab qilishi mumkin. Bu texnologiyalarni samarali qo'llash uchun banklar yaxshi strategiya ishlab chiqishlari, xodimlar malakasini oshirishlari va texnologiyalarning xavfsizlik jihatlarini mustahkamlashlari kerak.

Xulosa

Ushbu tezis banklarning iqtisodiy samaradorligini oshirishda zamonaviy texnologiyalarning qo'llash va uning ahamiyatini o'rganishga ega bo'lib, uning natijalari banklar uchun yangi imkoniyatlar yaratishini ko'rsatdi. Raqamli bank xizmatlari, sun'iy intellekt, big data va blokcheyn texnologiyalari banklarning operatsiyalarini optimallashtirish, xarajatlarni kamaytirish va mijozlarga sifatli xizmat ko'rsatish imkoniyatlarini taqdim etadi. Biroq, bu texnologiyalarni joriy etishdagi qiyinchiliklar, ayniqsa, xavfsizlik, investitsiyalar va malakali kadrlar tayyorlash masalalari, banklarning muvaffaqiyatli rivojlanishida muhim omil hisoblanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytishim mumkinki, zamonaviy texnologiyalarni to'g'ri va samarali qo'llash banklarning raqobatbardoshligini oshirish, iqtisodiy



samaradorlikni yuqori darajaga ko'tarmoqda. Banklar o'z faoliyatlarini raqamlashtirishni davom ettirishi va texnologik innovatsiyalarni joriy etishni davom ettirishi kerak, shu bilan birga xavfsizlik va qonuniy masalalar bo'yicha ehtiyotkorlikni oshirishi lozim. Umuman olganda, zamonaviy texnologiyalar banklar uchun iqtisodiy samaradorlikni oshirishda eng muhim vositaga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. 2020 — 2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida PF-5992 sonli qaror 12.05.2020-yil
2. Antunes J., Hadi-Vencheh A., Jamshidi A., Tan Y., and Wanke P. "Bank efficiency estimation in China: DEA-RENNa approach," *Ann Oper Res*, vol. 315, no. 2, pp. 1373-1398, (2022);
3. Bank va moliya jurnali – 2020, Moliya va Bank ishi jurnali 13-14-betlar
4. «Bozor, pul va kredit jurnali N_1-12 2023-yil 32-34 betlar.
5. *International Economics theory & policy eleventh edition global edition* Paul R. Krugman Princeton University Maurice Obstfeld University of California, Berkeley Marc J. Melitz Harvard University. 2023-y, 102-106-betlar
6. <https://cbu.uz/uz/monetary>